

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASHI ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TOSHPULATOV DILSHODJON ABDURAFIKOVICH

**NOFILOLOGIK OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARIGA TIJORAT
LEKSIKASINI O‘RGATISH TEXNOLOGIYALARINI MONITORING
QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Ingliz tili misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Pedagogical Sciences**

Toshpulatov Dilshodjon Abdurafikovich

Nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o‘rgatish
texnologiyalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirish
(Ingliz tili misolida)..... 3

Тошпулатов Дилшоджон Абдурафикович

Совершенствование системы мониторинга технологий по обучению
коммерческой лексики студентов нефилологических вузов
(На примере английского языка) 27

Toshpulatov Dilshodjon Abdurafikovich

Improving the system of monitoring technologies for teaching commercial
vocabulary to students of non-philological higher education institutions
(On the example of the English language) 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
ILMIY KENGASHI ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TOSHPULATOV DILSHODJON ABDURAFIKOVICH

**NOFILOLOGIK OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARIGA TIJORAT
LEKSIKASINI O‘RGATISH TEXNOLOGIYALARINI MONITORING
QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Ingliz tili misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2021.1.PhD/Ped1296 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdhti.uz hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Jumanazarov Umid Umirzakovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Pazilov Abdushoxit Abduvayevich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning "10" noyabr 2025-yil soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62392 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" oktyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "29" oktabr dagi № 46 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
katibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

D.A.Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida soʻnggi yillarda ingliz tilining xalqaro iqtisodiy, moliyaviy va tijorat aloqalaridagi roli keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, tijorat leksikasini oʻrgatishga doir nazariy tadqiqotlarda ESP (English for Specific Purposes), EBP (English for Business Purposes) va CLIL (Content and Language Integrated Learning) kabi konseptual yondashuvlar asosida til va kasbiy soha integratsiyasi markaziy oʻringa chiqmoqda. Chegaradosh fanlar – tilshunoslik, pragmatlingvistika, taʼlim texnologiyalari va iqtisodiy bilimlar asosida ingliz tilining kasbiy sohalarda qoʻllanishi boʻyicha nazariy model va yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, tijorat terminologiyasi, transmilliy savdo nutqi birliklari, nutq aktlari va strategiyalarining oʻrgatilishini zamonaviy kognitiv-psixologik metodlar bilan uygʻunlashtirish boʻyicha koʻplab nazariy izlanishlar olib borilmoqda.

Jahonda, xususan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya va Osiyoning ayrim ilgʻor davlatlarida tijorat leksikasini oʻqitish boʻyicha elektron oʻquv modullari, kasbiy til portallari va tarmoqli platformalar asosida monitoring qilish tizimlari joriy qilinmoqda. Masalan, "Business English Pod", "Market Leader", "BBC Learning English – Business", "Cambridge Business Advantage" kabi elektron resurslar orqali nafaqat til oʻrgatish, balki real tijorat vaziyatlaridagi til ishlatish koʻnikmalarini nazorat qilish va baholash usullari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, adaptiv texnologiyalar, raqamli baholash vositalari, sunʼiy intellekt asosidagi oʻrgatuvchi dasturlar amaliyotga joriy qilinmoqda. Ushbu resurslar individual yondashuv, differensial taʼlim, til kompetensiyasini dinamik baholash hamda reflektiv tahlilni amalga oshirish imkonini beradi.

“Oʻzbekiston sharoitida soʻnggi yillarda nofilologik oliy taʼlim muassasalarida xorijiy til, xususan ingliz tilini kasbiy yoʻnalishlarda oʻrgatish masalasi davlat siyosati darajasida qoʻllab-quvvatlanmoqda”¹. Biroq, tijorat leksikasini oʻrgatish jarayonini tizimli monitoring qilish, natijadorlikni baholash va oʻqitish samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish borasida hali amaliy tajriba va metodik vositalar yetarlicha shakllanmagan. Amaldagi darsliklar va oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar asosan umumiy til kompetensiyasini shakllantirishga yoʻnaltirilgan boʻlib, kasbiy leksika, ayniqsa tijorat sohasi tilini chuqur oʻzlashtirishni monitoring qilish tizimi yoʻqligi oʻquv jarayonida uzviylik va sifatga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda, shu bois mazkur yoʻnalishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalashgan holda monitoring qilish tizimini yaratish, uni milliy taʼlim tizimiga moslashtirish va xorijiy ilgʻor tajribalar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirokchilariga yollagan tabrigi // Xalq soʻz, 2018-yil 8-avgust.

“Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2017-yil 27-iyundagi PQ-3151-sonli “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda chet tillarni o‘qitish metodikasi masalalari J.J.Jalolov, M.Djusupov, D.U.Xashimova, T.K.Sattarov, L.T.Axmedova, I.M.Tuxtasinov, M.A.Nazarov, B.G.Qulmatov, M.H.Gulyamova, G.T.Mahkamova, Sh.S.Ashurov, U.U.Jumanazarov ² kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keng yoritilgan.

Ta’lim jarayonida tijorat sohasiga oid atamalarning ikki tilli lug‘atlarini tayyorlash, ularning turli xil ma’naviy xususiyatlarini o‘rganish borasida Ch.S.Abdullayeva, X.Dadabayeva, X.I.Islamjanova, S.Saidova, F.D.Xalilov, D.M.Teshaboyeva,³ kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Shuningdek,

² Тухтасинов И.М. Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке преподавания переводчиков: дис.док.пед.наук (DSc).-Т.,2018.-203 с.; J.J.Jalolov. Chet tili o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabarlari uchun darslik).-Т., 2012.-432с. Джусупов М. Социоллингвистика, лингводидактика, методика. Электронманба: https://pushkininstitute.ru/system/file_tree_nodes/attachments/000/000/640/original/SNG_Jusupov2_Uzbekistan.pdf?1456479950 murojat sanasi 12.06.2020; Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межязыковой взаимодействий дис.док.пед.наук (DSc).-Т., 2007.-209 с; Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): автореф.дис...док.пед.наук. –Ташкент, 2000.-32с; Ахмедова Л.Т., Кон О.В. Методика преподавания русского языка. Фан ва технология. Т., 2007.-240 с. Nazarov M.A. Ingliz tilidagi matnlarni o‘qitishda talabalarni leksik polisemiya o‘rgatishni takomillashtirish. avftoref...kan.ped.nauk.-Toshkent,2018; Qulmatov B.G. Ingliz tilini innovation texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlardan foidalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. avtoref. ped.fan.bo‘yicha falsafa doktori.-Toshkent, 2018; Gulyamova M.H. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrative yondashuv: avtoref. ped.fan.bo‘yicha falsafa doktori.-Toshkent,2019.-45b.; J.J.Jalolov Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S “English language teaching methodology” 2015.; Jumanazarov U.U. Ta’limni raqamlashtirish muhitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish. Ped.fan.dokt.dissertat.avtoref.(DSc).-Jizzax, 2021. 89-b.

³ Абдуллаева Ч.С. Русско-узбекские параллели в современной экономической терминологии. Дисс. на со иск. учен. степени канд. филол. наук. – Т., 2000. – С.51.; Дадабаева Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV. Ташкент, 1991. С. 85-102.; Исламджанова Х.И. Путеводитель по языковедческим дисциплинам. Учебное пособие. Ташкент, 2009. 224с.;

T.Bedladze, Sh.Niyazmatov, U.Uvatov va M.Pardayevlar tomonidan tijoratga oid atamalar lug‘ati yaratilgan.

Mustaqil hamdo‘stlik mamlakatlari olimlari va tadqiqotchilaridan I.D.Suxanova, T.A.Shirokova, V.V.Kasyanov, M.R.Nasirova, L.N.Lubojeva, V.M.Sergevnina, G.F.Kaljanova, V.V.Ivanovlarning⁴ tadqiqotlarida mazkur muammo bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Jahon tilshunosligida iqtisodiy, siyosiy atamalarning leksik-semantik xususiyatlari tahlillari, turli sohalarda qo‘llanilishi va amaliy ahamiyati masalalari va vazifalari I.G.Anoxina, O.S.Axmanova, A.I.Pakrovskiy, V.N.Yarseva, B.A.Rayzberg, L.Sh.Lofovskiy, Ye.B. Starodubsev⁵ kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbek tilshunosligida M.Choriyevning ingliz tili leksikasini o‘rgatishning lingvodidaktik va injener lingvistik asoslari, R.G.Karimovning ingliz tili va o‘zbek tillari materialida tijorat xatlarning lingvopragmatik aspekti, N.N.Normatovanning ingliz tilini o‘qitishda iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish⁶, U.U.Maxmudovanning reklama matnlari tarjimasining lingvomadaniy va uslubiy jihatlari⁷, D.M.Teshaboyevanning o‘zbek va rus tillardagi savdo-sotiq sohasiga oid xizmat xatlarida nutqiy etikaning

Saidova S. Xitoy tilda savdo-sotiq hujjatlarini bildiradigan atamalar //O‘zbek sharqshunosligi: buguni va ertasi. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Tashkent, 2010. – B.138-139. Xalilov F.D. Словообразовательный аспект астроавиакосмических терминологий русского и узбекского языков. Автореферат на соис. учен. ст. канд. филол. наук. Ташкент, 2004. С. 32.; Тешабоева Д.М. Речевой этикет делового письма (на материале русского и узбекского языков). Дисс.кан.филол.наук.-Тошкент, 2000. С.33-46.

⁴ Суханова И.Д. Композиционно-структурные и лингвостилистические параметры текстов жанра коммерческой корреспонденции английского языка. Дисс. кан.филол.наук:10.00.04. МГПИИЯ им. М.Тореза, Москва, 1984. – С.61. Термины и терминология политической экономии социализма (опыт системного исследования на материале современного немецкого языка). Дисс. Кан.филол.наук: 10.02.04. МГПИИЯ им. М.Тореза, Москва, 1978. Касьянов В.В. Сопоставительный анализ современной терминологии финансовой деятельности в английском и русском языках. Дисс. на со-иск. уч. степ. канд. филол. наук. М.,2001. – С.108. Насырова М.Р. Социально-экономическая терминология в современном казахском языке. Дисс.кан.филол.наук-Алма-Ата,1969.; – С.99. Лубожева Л.Н. Роль профессиональной лексики в обогащении словарного состава обще употребительного языка (на материале экономиче-ской терминологии английского и русского языков). Дисс.на со иск. учен. ст. канд. филол. наук. – Челябинск, 2006. С.77-87.; Сергевнина В.М. «Принципы системного анализа терминов//в кн.: Термин и слово. Горький, 1981,с. 65-73; Калганова Г.Ф. «Функционирование татарского языка в финансово-экономической сфере (с конца XIX века по настоящее время) // Автореферат на соискание ученой степени канд. филол. Наук. Казань, 2006. С.3-26.; Иванов В.В. Терминология и заимствования в современном китайском языке. М., 1973, Изд.: Наука. С. 42-55.

⁵ Анохина И.Г. Англо-русский коммерческий словарь–справочник. М., Моби, 1922.-483 с.; Ахманова О.С; Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. -503 с; Пакровский А.И. Экономика торговли. М., Экономика, 1980г.; Ярцева В.Н. Большой Энциклопедический Лингвистический Словарь 2-е изд., 1990, 687с; Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. М.: Инфра-М, 5-е изд., 2007, 250 с.

⁶ T.Bedladze, Sh.Niyazmatov, U.Uvatov “Inglizcha o‘zbekchi va ruscha tijorat lug‘ati” tahriri ostida chiqarilgan lug‘at T. 1995y. 45-b.; Pardayev M.K. Русско-Узбекский словарь экономически терминов торговли. – Тошкент: Ўқитувчи, - С.5.; Choriyev M. “Ingliz tili leksikasiga o‘rgatishning lingvodidaktik va injener lingvistik asoslari” dissertatsiyasi. UzDJTU Toshkent 2000 y. -B.56-66. Karimov R.G. “Tijorat xatlarning lingvoprogmatik aspekti (ingliz tili va o‘zbek tillari materialida)” doktorlik dissertatsiyasi. O‘zDJTU, Toshkent 2018-y. -B.76-86.; Normatova Nurjamol Normatovna 13.00.02 ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) “Ingliz tilini o‘qitishda iqtisodiyot yo‘nalishi talabalarining og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish”. Termiz davlat universiteti 2021-yil pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi. -B.67-86.

⁷ Maxmudova Umida Ural qizi 10.00.01. Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik “Reklama matnlari tarjimasining lingvomadaniy va uslubiy jihatlari” filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi. – B.121.

qo‘llanilishi⁸ kabi tadqiqotlarida ham iqtisodiyot yo‘nalishlarida chet tillarni o‘qitish metodlari haqida izlanishlar olib borilgan. Biroq tijorat sohasiga tegishli leksemalar ustida ishlash bugungi zamonaviy ilmiy tadqiqot olamida dolzarbligicha qolmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti “Ta’lim jarayonini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi va “Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o‘qitishda nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o‘rgatish texnologiyalarini va monitoring asoslarini takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o‘rgatish texnologiyalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

nofilologik talabalarga tijorat leksikasini o‘rgatish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan monitoring tizimi modelini takomillashtirish;

nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish;

nofilologik talabalarga tijorat leksikasini o‘rgatish metodikasining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan monitoring tizimi uchun aniq va ilmiy asoslangan mezonlar va ularni baholash ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti talabalarga tijorat leksikasini o‘rgatish texnologiyalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirish jarayonini tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o‘rgatish texnologiyalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirish jarayoni mazmuni, usullari va metodlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnomalar, ekspert baholash, nazariy tahlil, qiyosiy-tipologik va analitik metod, savol-javob, umumlashtirish, matematik-statistik tahlil metodlardan va DTSdagi konseptual fikrlarni tahlil qilish, qarashlarni o‘rganish, analiz va sintez, tajriba-sinov, retrospektiv tahlil, modellashtirish, kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o‘rgatish texnologiyalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari formativ baholash, interaktiv muloqotga kirishish, refleksiv tahlil kabi metapedagogik yondashuvlarning diagnostik, prognozlashtiruvchi, korreksion model shakllarini qo‘llab talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasi, kommunikativ leksik kompetensiyasi va o‘quv-kasbiy yetukligini rivojlantirish asosida aniqlashtirildi;

⁸ Тешабоева Д.М. Речевой этикет делового письма (на материале русского и узбекского языков): Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. С.33-46.

nofilologik talabalarga tijorat leksikasini o'rgatish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan monitoring tizimi modeli mazmunli bloki monitoring tizimining asosiy tamoyillariga ustivorlik berish asosida leksik-tarjima, demonstratsiya, izohlash, reproduktiv, muammoli o'qitish, evristik suhbat usullarini kiritib talabalar faoliyatidagi motivatsion profillash, kognitiv faollik darajasi, metatanlov strategiyalari lingvopsixologik jihatdan takomillashtirildi;

nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o'rgatish metodikasi o'quv dasturlariga turli sohalarga xos bo'lgan haqiqiy tijorat matnlari, shartnomalar, biznes-rejalar va hisobotlarni kiritish, darsliklarda iqtisodiy fanlarga oid kontentdan foydalanishga ustivorlik berib, talabalarga real biznes yozishmalarini tahlil qilish, kompaniyalar o'rtasidagi muzokaralarda ishtirok etish va turli biznes-keysarlarni yechish asosida takomillashtirildi;

nofilologik talabalarga tijorat leksikasini o'rgatish metodikasining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan monitoring tizimi mezonlari va ularni baholash ko'rsatkichlari talabalarda terminologik lug'ning kengligi va aniqligi, yozma nutq savodxonligi va samaradorligiga ustivorlik berilib nazorat diagnostikasini ijtimoiy-psixologik, kasbiy-pedagogik tamoyillar asosida o'tkazish va ularning kasbga yo'naltirilganligi, kasbiy kompetentligi hamda kasbiy-psixologik sifatleri differensial yondashuv asosida aniqlashtirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nofilologik oliy o'quv yurtlari 1-2-kurs talabalari uchun xalqaro B1/B2 (CEFR) bilim darajasidagi "1-kurs ingliz tili" o'quv-uslubiy majmuasi tarkibi takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot yo'nalishlari talabalari uchun "O'zbekcha-inglizcha-ruscha" tijorat lug'ati yaratilgan.

"Teaching English texts through innovation skills" uslubiy qo'llanmasi nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Keltirilgan nazariy ma'lumotlar, metodik usullarning manbalardan olinganligi, talabalarning tijorat sohasidagi innovatsion taffakurini shakllantirish bo'yicha ilg'or g'oyalar va mulohazalar tahlili, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot yo'nalishi I va II bosqich talabalariga ingliz tilidagi tijorat atamalarini innovatsion metodlar orqali o'qitish va monitoring orqali uning samaradorligini takomillashtirganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarning tijorat atamaları izohini tushunishi va ishlatish ko'nikmalarini kompleks ravishda rivojlantirish maqsadida O'zbekcha-inglizcha-ruscha tijorat lug'ati va "Teaching English texts through innovation skills" uslubiy qo'llanmasi yaratilganligi bilan belgilandi. Moliya, bank shu bilan birgalikda iqtisodiyot sohasidagi kadrlarni kasbga yo'naltirish orqali malakalarini oshirishda, o'quv dasturlari va yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda, ixtisoslashtirilgan til o'rgatish kurslari faoliyatini takomillashtirishda foydalanilishi mumkinligini ham nazarda tutadi.

Tadqiqotning natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilini o‘qitishda nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalarining tijorat leksemalari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o‘rgatish texnologiyalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari formativ baholash, interaktiv muloqotga kirishish, refleksiv tahlil kabi metapedagogik yondashuvlarning diagnostik, prognozlashtiruvchi, korreksion model shakllarini qo‘llab talabaning shaxsiy ta‘lim trayektoriyasi, kommunikativ leksik kompetensiyasi va o‘quv-kasbiy yetukligini rivojlantirish asosida xulosalardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti YOBV-Ftex-2018-138 raqamli bajarilishi 2018-2019-yillarga mo‘ljallangan “Bulutli hisoblash texnologiyasi bazasida axborot tahlili tizimini loyihalashning nazariy asoslarini ishlab chiqish” nomli amaliy loyiha doirasida foydalanildi (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filialining, 2021-yil 3-apreldagi № 155/01-01-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalarining leksik kompetensiyasini rivojlantirish, ingliz tilida o‘qish, tinglab tushunish, yozuv va nutq ko‘nikmalarini yanada takomillashtirish va kasbiy bilimni oshirishga erishildi;

nofilologik talabalarga tijorat leksikasini o‘rgatish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan monitoring tizimi modeli mazmunli bloki monitoring tizimining asosiy tamoyillariga ustivorlik berish asosida leksik-tarjima, demonstratsiya, izohlash, reproduktiv, muammoli o‘qitish, evristik suhbat usullarini kiritib talabalar faoliyatidagi motivatsion profillash, kognitiv faollik darajasi, metatanlov strategiyalari lingvopsixologik jihatdan takomillashtirish bo‘yicha takliflardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovasion loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 16-iyuldagi № 01/4-3147-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalarida ingliz tilida tijorat atamalarini kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish imkoniyatlari takomillashtirilgan;

nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o‘rgatish metodikasi o‘quv dasturlariga turli sohalarga xos bo‘lgan haqiqiy tijorat matnlari, shartnomalar, biznes-rejalar va hisobotlarni kiritish, darsliklarda iqtisodiy fanlarga oid kontentdan foydalanishga ustivorlik berib, talabalarga real biznes yozishmalarini tahlil qilish, kompaniyalar o‘rtasidagi muzokaralarda ishtirok etish va turli biznes-keyslarni yechish asosidagi takliflardan Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2015-2017 yillarda amalga oshirilgan A-1-057 “Oliy ta‘lim muassasalari talabalarini modulli o‘qitishga pedagoglarni kompetentli tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari” mavzusidagi amaliy tadqiqotlar davlat grantlari loyihasi doirasida foydalanildi (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filialining 2023-yil 10-maydagi № 107/01-01-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, loyiha ishtirokchilarida tijorat atamalarini ingliz tilida o‘rganish borasidagi bilim hamda ko‘nikmalarining o‘sishi, ularni o‘zaro kommunikativ munosabatlardagi ta‘siri oshganligi aniqlangan;

nofilologik talabalarga tijorat leksikasini o'rgatish metodikasining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan monitoring tizimi mezonlari va ularni baholash ko'rsatkichlari talabalarda terminologik lug'ning kengligi va aniqligi, yozma nutq savodxonligi va samaradorligiga ustivorlik berilib nazorat diagnostikasini ijtimoiy-psixologik, kasbiy-pedagogik tamoyillar asosida o'tkazish va ularning kasbga yo'naltirilganligi, kasbiy kompetentligi hamda kasbiy-psixologik sifatlari differensial yondashuv asoslanganligi bo'yicha olingan takliflardan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR3181 "Reinforcing English Language at Karshi State" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universiteti 2025-yil 15-iyuldagi № 04/3242-sonli SUZ-800-21GR-3181 conli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning leksik kompetensiyasini joriy nazorat diagnostikasi orqali baholashda samaradorlik ta'siri oshganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining chop etilishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 32 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 14 tasi ilmiy maqolalar, jumladan, 6 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika, hamda 5 ta xorijiy ilmiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti belgilangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot usullari aniqlangan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o'rgatishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida tijorat sohasida foydalaniladigan leksik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari, tijorat leksikasini o'rganishning etimologik taraqqiyot bosqichilari, nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini xalqaro tajribalar asosida o'qitish usullarining afzalliklari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Birinchi faslida tijorat sohasida ishlatiladigan leksik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida tahlillar o'tkazilgan. Tijorat sohasidagi mavjud leksiklarning turli sathlarda kelib chiqish tarixi va ahamiyati borasida so'z yuritilgan. Shuningdek, dunyo olimlari va mahalliy olimlarning sohaga tegishli fikr va mulohazalari batafsil yoritib o'tilgan. Bobning birinchi faslida sanab o'tilgan olimlarning qarashlaridan kelib chiqib, tijorat terminlarini kelib chiqish tarixi O'rta Osiyo mamlakatlarida Yevropadagi uyg'onish davridan ham ilgari mavjud bo'lganligi alohida qayd etildi. Bugungi kunda ularni talabalarga o'rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish lozimligi to'g'risida taklif va tavsiyalar berildi.

“Tijorat” soʻzi arabcha soʻz boʻlib, lugʻaviy jihatdan savdogarlik, oldi-sotdi ishi maʼnosini anglatadi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida atama sifatida “Savdo-sotiq, savdo (savdogarlik) ishlari” deb berilgan “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent 2006-2008 yillar). Xalq orasida esa “bir narsani savdoga qoʻyib, foyda olish uchun sotib olish” degan maʼnoda ishlatilib kelingan.

Tilimizdagi “savdo” soʻzi arabcha “bay” soʻziga ham toʻgʻri keladi. “Bay” soʻzi lugʻatda “oʻzaro bir narsani almashtirish”ni anglatadi. Shariatda esa bir molni ikkinchi bir mol muqobiliga rozi boʻlib qabul qilib olishga “bay” deb aytiladi. Qisqa qilib aytganda, “savdo” soʻzi “tijorat” soʻzidan umumiyroq boʻlib, bugungi kunning istilohidagi “bozor munosabatlari” maʼnosiga yaqinroq keladi.

Lingvistik va ekstralingvistik harakatlar natijasida vujudga kelgan terminologik sistema oʻz oʻrnida terminlarning ikkilamchi tabiati, ularning tildagi va tildan tashqaridagi sistemali belgilar paydo boʻlishida zarur shart-sharoit hisoblanadi.

Biz tijorat leksikasini til yaruslarida, xususan, soʻz turkumlari doirasida uchrashini koʻrib chiqamiz. U yoki bu tushunchani oʻrganishda yaruslararo yondashuv turli yaruslardagi mos ifoda vositalarini aniqlashni nazarda tutadi. Shuning uchun bir-biri va uning atrofidagi leksika bilan oʻzaro taʼsir qiladigan tabiiy nutqda soʻzlarni qoʻllashni hisobga olmay turib, faqat grammatik formalar bilan cheklanish mumkin emas. I.M.Tuxtasinovning taʼkidlashicha: “Talabalarning chet tilini oʻrganishga boʻlgan qiziqishini shakllantirish, lugʻat, maʼlumotnoma va asl matnlar bilan ishlash qobiliyatlari va bilimlarini rivojlantirish, zarur boʻlgan grammatik materiallarni tizimlashtirish, kasbiy matnlarni toʻgʻri tushunish va badiiy tarjima mahoratini rivojlantirish bugungi kun talabidir⁹.”

Ilmiy izlanishlar va olib borilgan hisob-kitoblarga koʻra ingliz tilining 75% lugʻat boyligi fransuz va lotin tillaridan kelib chiqqan ekan. Shulardan ingliz tilining tijorat leksikasini shakllanishini oʻrganish uchun olingan 400ta leksikaning etimologiyasi oʻrganilganda, ularning 41% ni fransuz tilidan kelib chiqqanligi aniq boʻldi. Lotin tilidan esa tijoratga doir inglizcha soʻzlar 30% ni tashkil qildi. Shuningdek, yapon 13%, yunon 4%, italyan 4%, ispan 2.3%, shimoliy german tilidan 1.7% leksik birliklar kirib kelganligi ayon boʻldi. Boshqa sharq tillarining (fors va arab) ingliz tijorat leksikasiga taʼsiri alohida oʻringa ega ekanligi maʼlum boʻldi. Ularning oʻrni quyidagicha: 1% dan kam miqdorni tashkil qiladi. Umuman, ingliz tili tijorat leksikasining shakllanishida ushbu dunyo tillarining taʼsiri masalasi chuqur tahlil qilindi.

Ikkinchi faslida tijorat leksikasini oʻrganishning etimologik taraqqiyot bosqichilariga bagʻshlangan. Bunda, tijorat leksikasini oʻrganishning qiyosiy-tipologik tahlili metodini foydalanish taklifini kiritdik. Oʻzbek tiliga oʻzlashtirilgan barcha tillarda isteʼmoldagi terminlarni ikki guruhga, yaʼni moʻtadillashgan leksik birliklar, stabillashmagan moʻtadil boʻlmagan terminlarga boʻlish mumkin.

Azaldan oʻzbek tilida boʻlgan va tegishli terminologik tizimda aniq leksik maʼno olgan “tovlama”, “bosma”, “vazir”, “chayqov” kabi terminlar, shuningdek,

⁹Tukhtasinov I.M., Kholiyorov B.H. Features of the System of Formation of Compensatory Competence Among Agricultural Students as a Means of Filling in Professional Terminology. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-8 Issue-11, September 2019. P-2203-2206. <https://www.ijitee.org/wp-content/uploads/papers/v8i11/K20390981119.pdf>.

o‘zbek tili qoidalariga asoslanib yasalgan “tovlamachi”, “bosmaxona”, “vaziri-azam”, “chayqovchi”, kabi terminlar ham tublashgan leksemalar tarkibiga kiradi.

Tublashmagan leksemalarning qanday usullar orqali tuzilish yo‘llarini ko‘rib o‘tamiz. Ular quyidagilar:

1. Avvaldan tilda mavjud bo‘lgan yoki tojik, arab tillaridan kirib kelgan terminlardan arxaik yoki neologik terminologik ma’no tarzida foydalanishi. Masalan: mulkdor, tegirmonchi, noshir.

2. O‘zbek tilining o‘zidagi imkoniyatlaridan foydalanib (affiksatsiya yoki kompozitsiya yo‘li bilan) yangi terminlar yasash. Masalan: chayqovchi, ta’sischi.

3. Xorijiy tildan terminlarni o‘zgarishsiz qabul qilish. Masalan: razvedkachi, likvidator, birja.

4. Xorijiy tildan terminlarni o‘zlashtirib qabul qilish. Masalan: stenografist, statistika.

5. Rus tilidagi variantlilik, taqlidan o‘zbek tilida termin yasash. Masalan: ekspluatatsiya qiluvchi, tovarlar, texnik mutaxassis.

Xulosa shundan iboratki, tijorat sohasida ishlatiladigan leksik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ichiga keng qamrovli tillardan o‘zlashgan va o‘zlashtirayotgan so‘z, iboralar, mavjudligi aniqlandi. Ushbu ingliz tilining boyish manbalari va uning taraqqiyot bosqichlari qadimi tarixga borib taqalishini keltirgan misollar ko‘rsatib turibti. Bu holat ichki va tashqi manbalar asosida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Uchinchi “Tijorat leksikasini o‘rganishning etimologik taraqqiyot bosqichilari” faslida nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini xalqaro tajribalar asosida o‘qitish usullarining afzalliklari tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida ta’limning barcha bosqichlarida chet tillarni o‘qitishning asosiy maqsadi talabalarning ko‘p madaniyatli dunyodagi kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borish uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhim hisoblanadi. Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya, Fransiya, Kanada), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi davlatlarning o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot jarayonlari, modulli ta’lim tizimi mohiyati, Yevropa yagona ta’lim muhiti (Boloniya jarayoni), modulli-kredit tizimi mohiyati, uning asosiy tamoyillari va xususiyatlari haqida bilishni taqozo etmoqda. Dunyoning bir qator olimlari H.Fry, S.Ketteridge, S.Marshall va Nyu York universiteti vakillarining fikricha, “task based learning”, interaktiv metodlar, pedagoglarning tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion metodlar talabaning tijorat leksikalarini mazmunan chuqur o‘rganib olishida katta ahamiyatga ega¹⁰ deb ta’kidlashadi.

Deklan Bern “blended learning” (aralash ta’lim) haqida shunday deydi: “...ushbu ta’lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan”. Bu kabi yondashuv talabalarga tijorat leksikasini yetkazishda va axborotni taqdim etishda turli uslublarning ishlatilishini, ta’limni tashkil etish hamda ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarining qo‘llanilishini, yakka tarzda va guruhlarda an’anaviy faoliyatni tashkil etishda asoslanishi mumkin. Bunday yondashuv talabani charchatmaydi, ularni ilm olishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

¹⁰ H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. Handbook For teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.

Asosiy masala – tanlangan uslublarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlash va kam harakat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi. Bugungi kunda blended learning kunduzgi an’anaviy ta’lim va masofaviy ta’limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda 3 an’anaviy metod va yangi texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga imkon yaratiladi. Ushbu tizimda o‘qituvchi ta’lim markazida qoladi, internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. “Blended learning” masofaviy ta’lim (“Distance learning”), sinfxonada ta’lim (“Face-to-Face learning”) va internet orqali ta’lim (“Onlin learning”) ko‘rinishida mashg‘ulotlarni olib borish mumkin. Mazkur o‘qitish jarayonlari muhim metodik texnologiyalardan biri sifatida tijorat terminlarini keng aspektda yoritib berishga imkon beradi, o‘rganuvchilarning tez va samarali holda o‘zlashtirishlari uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonida, zamonamizning eng so‘nggi innovatsiyalarining qo‘llanilishi orqali ta’limda sifat monitoringini yaxshilashga erishish ayni haqiqat hisoblanadi. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda onlayn yoki interaktiv darslarni tashkil etish o‘rganuvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Dissertatsiyaning **“Nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o‘rgatish texnologiyalarini monitoring qilish metodologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz tilida tijorat leksikasini o‘rgatishdagi qiyinchiliklar o‘rganilgan. Ingliz tilida tijorat leksikasini o‘rgatishning bosqichlari va metodlari, tijorat leksikasini o‘rgatish texnologiyalarini monitoring qilishning yo‘llari va samaradorligi yoritilgan.

Birinchi faslda ingliz tilida tijorat leksikasini o‘rgatishdagi mavjud yuzaga keladigan qiyinchiliklar haqida ma’lumot berilgan.

1. Ta’lim muassasalarida ingliz tilida tijorat leksikasini tinglab tushunishda yuzaga keladigan o‘ziga xos qiyinchiliklari mavjud¹¹. A.Mavlyanov, Sh.Javlonov, S.Abdalova va L.Yusupovalarning fikricha mashg‘ulotlarni olib borish uchun mavzuni tanlash uni shakllantirish o‘qituvchi tomonidan juda bir muhim vazifa sifatida qaralishi kerak. Bu borada pedagogik texnologiya jihatdan o‘rgatishda o‘ziga xos metodlarni joriy etish¹² zarur.

1.1. Tilga oid shakliy qiyinchiliklar. Ma’nosi har xil, tovushi shakli esa o‘xshash so‘zlarni (omofonlarni) yoki chet til fe’lining majhul darajasini tinglash va tushunish murakkablik kasb etadi. Omofon va majhul fe’l bir qarashda tanishga o‘xshaydi, biroq audiomatnning mazmunini payqash hiyla qiyinchilik tug‘diradi. Masalan: pence –pens , peseta –ispan pesetasi.

1.2. Mazmuniga doir qiyinchiliklar. Olinayotgan axborot qamrovidagi nima, qayerda, kim bilan, qachon bo‘lishi kabi dalillarni idrok etish yoki ular orasidagi bog‘lanishni ilg‘ab olish bobida, shuningdek, umumiy g‘oyaga taaluqli qiyinchiliklar mavjuddir. Masalan: “social insurance agent basic” - ijtimoiy sug‘urta agenti.

¹¹ Mavlyanov A., Abdalova S. “Fanlardan mashg‘ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni”. Zamonaviy ta’lim. 2013. №6. – B.30-33.

¹² Mavlyanov A., Javlonov Sh., Abdalova S., Yusupova L. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida mashg‘ulot mashg‘ulotlarini olib borish texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Voris, 2010. – 117 b.

1.3. Nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchiliklar. Bular nutq tezligi, ohang va mexanik yozilgan audio matnning murakkabligi kabilar. Shu bilan birga audiomatnni bir marta idrok qilish, notanish odamni tinglash, ovozdagi o‘ziga xoslik kabilar ham tushunishga g‘ov bo‘lishi tabiiy. Masalan: “sales outlet” – savdo do‘konlari, “retail outlet” – chakana savdo do‘koni.

1.4. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar. Dialogik nutqda javob qaytarish, monologni tinglashda esa jummalarni eshitish, xotirada saqlash talaba uchun muayyan qiyinchilik keltirib chiqaradi. Masalan: “Where can I exchange my money?” – “Pulimni qayerda almashtirishim mumkin”. “Mostly, ten and five dollar bills please!” – “Iltimos, ko‘proq, o‘n va besh dollarlik bilan”.

1.5. Tilshunoslik nuqtayi nazardan sodir bo‘ladigan qiyinchiliklar. Ularni lisoniy – leksik, grammatik va fonetik qiyinchiliklar deb ataladi. Leksikada juft tushunchalar (masalan, dunyo tomonlarini ifodalovchi so‘zlar, ko‘p ma’nolilik (polisemiya) turg‘un birikmalardagi so‘z ma’nosi, yordamchi so‘zlar, grammatik jihatdan ona tilida yo‘q xodisalar yoki fonetik tarafdin so‘zning yozuvda va talaffuzda keskin tafavut, urg‘u va ohangning o‘xshamasligi tegishli qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi). Masalan: “active balance” - “aktiv balans”, “active market” - “talabi chaqqon bozor”.

Bu borada tilshunos olim S.G.Terminasova quyidagilarni ta’kidlaydi: “...o‘rganilayotgan til va qiyosiy kommunikativ madaniyatlararo aloqalar o‘quvchilarning fikr-mulohazalarini tijoratdagi so‘z birikmalarini aniq va ravshan tarzda tushunishlariga yetarli shart-sharoitlarni yaratish uchun ularning faoliyatini rag‘batlantiruvchi dars usullarini tanlash talab etiladi”¹³. Demak, ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun talabalarga so‘z birikmalari alohida-alohida yo‘nalishlar bo‘yicha interaktiv va zamonaviy seminar tarzida o‘tilsa ancha samarali bo‘ladi.

2. Noan’anaviy dars berish usullari va dars berishning o‘ziga xos usullari orqali o‘rgatishdagi qiyinchiliklar. Noan’anaviy dars berishning eng e’tiborli va tijorat terminlarini o‘rgatishdagi afzallik tomoni shundaki, u til o‘rganilayotgan mamlakat haqida uning ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy tomonlari haqidagi ma’lumotlarning talabalar ongida kengayishiga katta yordam beradi.

Tadqiqotchi olim S.Q.Madaminov chet tilda tijorat atamalarini o‘rgatuvchi o‘qituvchi quyidagi parametrlarga ega bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi:

- ✓ Maqsad tanlanganligi va ta’lim sifati yuqori bo‘lishi;
- ✓ Qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotlar yetkaza olish qobiliyati;
- ✓ Zamon talabiga ko‘ra metodlarni tanlash;
- ✓ Chet tilga o‘qitishda individual yondashuv;
- ✓ O‘quv dasturlari o‘zgarishi, yangicha standartga binoan yondashuv¹⁴.

Bugungi kunda yangi o‘qitish usullarini qo‘llaydigan pedagoglar noan’anaviy o‘qitish usullarini joriy etmoqdalar va ularni o‘quv jarayonida qo‘llanmoqdalar. Bunday dars berish usullariga video dars, bayram dars, internet dars va dars berishning boshqa-boshqa usullari kiradi. Video dars ustunligi shundaki, u talabaga

¹³ Тер-Минасова С. Язык и межкультурная коммуникация. – М., 2013. – 56 с.

¹⁴ Madaminov S.Q. Chet tillarni o‘qitishda innovatsion metodlarning o‘rni va ularning uslubiy tahlili. Magistrlik dissertatsiyasi. – Samarqand, 2018. – B.85.

mamlakatning hayot tarzi haqida ma'lumot beribgina qolmasdan, balkim havfsiz vaziyat orqali tili o'rganilayotgan mamlakatlarning so'zlashuv usullari, imo-ishoralari va mimikalari hamda muloqot usullari haqida ham ma'lumot oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi tez rivojlanayotgan davrda sifatli, har tomonlama yetuk mutaxassislarni kamol toptirish, ingliz tilida tijorat leksikasini o'rgatishdagi qiyinchiliklarni zamonaviy o'qitish metodlari orqali bartaraf etib yosh avlodni samarali bilim olishiga zamin yaratish zarur. Buning uchun o'qituvchilarga malaka oshirish kurslarini o'tashda tijorat terminlarini o'rgatish uchun mahorat darslarini o'tkazish ham muhim hisoblanadi.

Ikkinchi faslda ingliz tilida tijorat leksikasini o'rgatishning bosqichlari va metodlari haqida mulohaza bildirgan. Ko'pgina zamonaviy pedagog va tilshunos olimlarimiz tomonidan hozirda ingliz tilini o'rganayotgan talabalarga tijorat terminlarini o'qitishda bir necha bosqichlar va metodlar taklif etilmoqda. Oxirgi 10 yillikdagi ta'lim texnologiyalari bozorida tijorat leksikasini ingliz tilida o'qitishda quyidagi usul va bosqichlarni taklif etishni joiz deb bildik. Yosh pedagog olimlardan biri Irina Paneferova fikricha, birinchi yil grammatikani chuqur o'rganishni, ikkinchi yilda o'qishni chet tildagi matnlarni tahlil qilish va so'zlarni yod olib ishlatish ya'ni dialog ko'rinishida o'rgatish samarali natijalarga olib keladi. Birinchi grammatik-tarjima metodi, asosan, professional tarjimonlarni tayyorlashda qo'l kelib, o'qish yakunida talabalar dunyoga "native speaker", ya'ni til egasining (til tashuvchisi) ko'zi bilan qarashga erishadilar"¹⁵. Bizningcha, bu metod nofilologik oliy o'quv yurtlari yo'nalishidagi talabalarga, ayniqsa, iqtisodiyotga tegishli matnlarni professional darajada tarjima qilishda katta ahamiyatga ega.

Ikkinchi metod bu lingvosotsiomadaniy metoddur. Bu metodning afzalligi shundaki, o'rganilayotgan mamlakatning tili, madaniyati, urf-odatlarini, ayniqsa, savdo-sotiq muloqotida uchraydigan so'zlar, jargonlar, tijorat xatlari kabi muhim kategoriyalarni singdirishda o'ziga xos o'ringa ega. Bu borada bir qator olimlar tijorat xatlari masalasini o'zlarining ilmiy ishlarida ham ko'rsatib o'tishgan. Masalan: "foreign aid" – tashqi (xorijiy) yordam; "frozen assets" – qotib qolgan aktiv kabi.


Uchinchi metod bu kommunikativ metod bo'lib, birinchi navbatda talabaning munosabatga kirishishida o'zida mavjud bilim va ko'nikmalarni erkin, qo'rqusiz yetkazishidir. To'rtinchi metod intensiv metod bo'lib, o'rganilayotgan tildagi materialni boricha yodlash va uni aytib berishni talab etadi, tijorat leksikasidagi mavjud tilning ichki normalarini o'rgatishga imkon beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tijorat terminlarini o'rgatishda bir nechta metodlar va bosqichlar mavjud bo'lib, bu o'rgatish usullari terminlarning soddadan murakkabga qarab, noma'lumdan ma'lumda qarab o'zlashtirishga va bosqichlari esa tijorat terminlarini tez aniq o'rganishda yordam beradi.

Uchinchi faslda tijorat leksikasini o'rgatish texnologiyalarini monitoring qilish yo'llari va samaradorligi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Shuningdek, Nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalariga ingliz tilidagi tijorat leksikasini o'rgatish texnologiyalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirish modeli 2.5-rasmda keltirilgan.

¹⁵ Panferova I. Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy metodlari: o'xshashlik va farqli jihatlar. Ilmiy-metodik elektron jurnal. – B.104-105.



2.5-rasm. Monitoring qilish tizimini takomillashtirish modeli

Monitoringning asosiy nuqtasi – talabalarning malakasini tashxislash va kasbiy taʼlim jarayoniga tuzatishlar kiritish, yaʼni monitoring qilish, shaxsni va taʼlim jarayonini kasbiy rivojlanishini diagnostika, prognozlash va tuzatishni oʻz ichiga oladi.

Pedagogik kuzatishning samaradorligi oʻqituvchining psixologik kompetentligi, tajribasi, talabalarga boʻlgan munosabati, kasbiy mavqei va boshqa omillarga bogʻliq. Soʻrov usullari standart maxsus tanlangan savollarga yozma yoki ogʻzaki javoblar tahlili asosida oʻquv jarayoni mavzularini rivojlantirish haqida maʼlumot olish imkonini beradi. Soʻrovnomalar oʻquv-kasbiy faoliyatning asosiy tarkibiy qismlarini ifodalash yoki shakllantirish darajasini, talaba va oʻqituvchilarni yoʻnaltirishni hamda individual oʻquv-bilish xususiyatlari va sifatlarini aniqlash imkonini beradi.

Xorijiy tilda tijorat atamalarini oʻrgatishda anʼanaʼviy taʼlim texnologiyalarni ishlatgan holda talabalarga yetkizsak samarali monitoring yoʻllarini koʻrsatgan boʻlamiz. Jumladan, ananaʼviy texnologiyalarda tarjima qilish matni muhim oʻrin egalaydi. Tarjima qilish davomida talabalarda uchraydigan savollarga oʻqituvchi rahbarligida izoh berilib oʻtiladi va talabalarning oʻzlashtirish koʻrsatgichlari ham aniq boʻladi. Ananaʼviy taʼlim texnologiyalarida koʻproq ogʻzaki va yozma nutqni rivojlantirish uchun samarali usullar mavjud boʻlib, bularga ogʻzaki nutqni shakllantirishda suhbat – dialogli (yunoncha: dialogos - ikki yoki bir necha insonlar orasidagi soʻzlashuv), taʼlim berish va oʻrganishning savol–javobli yoʻllarini kiritish mumkin.

Bu shuningdek talabalar orasida kommunikativ va kreativ fikrlarni oshishiga turtki boʻladi. Yozma shaklda esa, diktant, rasmiy va norasmiy xatlarni toʻgʻri yozish qobiliyatini rivojlanishiga olib keladi. Bu kabi oʻqitish texnologiyalari samarali monitoring natijalarini beradi. Boshqa bir taʼlim texnologiyalaridan yana biri bu hamkorlikda oʻqitish texnologiyasi boʻlib, bu yordamida tijorat leksemalarini aniq, tez va isbot-dalillar orqali samarali monitoring qilish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, taʼlim motivatsiyasi monitoringini “kuzatish metodi” yordamida ancha muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Bu talabalarning turli oʻquv-kasbiy vaziyatlardagi faoliyatini kuzatish, oʻqishga va boʻljak kasbga boʻlgan munosabatini tahlil qilish, erishgan yutuqlarini baholash, oʻqituvchi va talabalarda ijobiy motivatsiyaning ifodalanganlik darajasi haqida xulosa chiqarishda yordam beradi. Ayrim hollarda oʻqitish motivlarini diagnostika qilish uchun aqliy hujum, blis-soʻrov, SWOT tahlili, insert, T sxemasi, klaster kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida nofilologik oliy oʻquv yurtlari talabalari uchun ingliz tilida tijorat leksik kompetensiyasini rivojlantirishga doir mashq va topshiriqlar tizimi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va oʻtkazish natijalari hamda statistik tahlillar yoritilgan.

Tadqiqot ishi boʻyicha tajriba-sinov ishlari 2019-2022 yillarda SamISI (Iqtisodiyot va menejment yoʻnalishlari) TDIU Samarqand filialida (Iqtisodiyot va turizm yoʻnalishlari) va TATU Samarqand filialida (Raqamli iqtisodiyot yoʻnalishida) tahsil olayotgan talabalar oʻrtasida 3 bosqichda amalga oshirildi:

1. Asoslovchi bosqich: 2019-2020 o‘quv yili, tahlil hamda muammoni aniqlash;

2. Shakllantiruvchi bosqich: 2020-2021 o‘quv yili, shakllantiruvchi, ta’limiy va tajriba ishlari;

3. Tasdiqlovchi bosqich 2021-2022 o‘quv yili, natijalar va statistik tahlil.

Tajriba-sinov ishlariga Samarqand iqtisodiyot va servis instituti iqtisodiyot fakultetining iqtisodiyotga oid yo‘nalishlari 1-2 bosqichidan 246 nafar talaba, TATU Samarqand filialidagi Raqamli iqtisodiyot yo‘nalishi 1-2 bosqichidan 240 nafar talaba, TDIU Samarqand filiali raqamli iqtisodiyot yo‘nalishi 1-2 bosqichidan 240 nafar talaba, jamiy 726 nafar talabalar jalb etildi.

Tajriba-sinov ishlarida 726 nafar talabalar qatnashdi va yozma, og‘zaki suhbatlar o‘tkazildi. Tadqiqotlar tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish metodikasi asosida tashkil etildi.

Ushbu paragrafda olingan natijalar matematik-statistik usullar orqali tahlil qilinadi. Talabalar tijorat leksemalarini ingliz tilida o‘zlashtirishi, mustaqil fikrlashi, o‘z-o‘zini baholashi kabi ko‘rsatkichlari nazorat va tajriba guruhlaridagi avvalgi va yakuniy natijaviy ko‘rsatkichlarning statistik baholarini aniqlash orqali chet tildagi tijorat leksemalarini o‘rganishning samaradorligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlarida tajriba maydonlari bir nechta bo‘lib, ularda qatnashayotgan guruhlar soni ikkitadan, ya’ni tajriba va nazorat guruhlaridan iboratdir. Tajriba-sinov maydonlari ishtirokchilari ustida bir necha o‘lchov kategoriyalari bo‘yicha o‘lchash ishlari olib borildi. Bir-biriga bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmagan hollarda ikki tanlanmadagi farqlarni (masalan, pedagogik samaradorlikni) aniqlash va baholash ishlarida K.Pirson (Xi-kvadrat), Kolmogorov-Smirnov va Fisher (burchak almashtirishi) mezonlari qo‘llanildi¹⁶. Taklif qilingan metodning pedagogik samaradorligini o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida nazorat va tajriba guruhlarini misolida aniqlash uchun Xi-kvadrat mezoni yordamida amalga oshirildi:

$$\chi^2 = N_1 N_2 \sum_{i=1}^k \left[\frac{1}{n_{1i} + n_{2i}} \left(\frac{n_{1i}}{N_1} - \frac{n_{2i}}{N_2} \right)^2 \right], \quad (3.1)$$

bu yerda: N_1 – nazorat guruhidagi ishtirokchilar soni; N_2 – tajriba guruhidagi talabalar soni; k – har bir guruhda olib borilgan o‘lchashlar soni, ya’ni “Yuqori daraja”, “O‘rta daraja”, “Quyi daraja”, “Eng quyi daraja” – $k=4$; n_{1i} , n_{2i} – nazorat va tajriba guruhlarida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ishtirokchilar soni ($n*4$ – “Yuqori daraja”, $n*3$ – “O‘rta daraja”, $n*2$ – “Quyi daraja”, $n*1$ – “Eng quyi daraja”). Xi-kvadrat mezoni (3.1) orqali aniqlangan tajribaviy qiymatlari statistik $\alpha=0,05$ ahamiyatlilik darajasi Xi-kvadrat mezonining kritik qiymatlari bilan solishtirish orqali quyidagi ikkita gipotezani qaraymiz:

$H_0: \chi_{\text{таж}}^2 > \chi_{\text{кр}}^2$ bo‘lsa, u holda $\alpha=0,05$ ahamiyatlilik darajasida tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan nazorat va tajriba guruhlarida sezilarli o‘zgarishlar mavjud;

¹⁶ Стариченко Б.Е. Обработка и представление данных педагогических исследований с помощью компьютера/ Урал. гос. пед. ун-т. Екатеринбург, 2004. – 218с. (55-67 бетларга қаранг)

$H_1: \chi_{\text{таж}}^2 \leq \chi_{\text{кр}}^2$ bo'lsa, u holda $\alpha=0,05$ ahamiyatlilik darajasida tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan nazorat va tajriba guruhlar talabalarning o'zlashtirish darajalari bir xil.

Barcha tajriba-sinov maydonlari uchun hisob-kitoblar Excel jadval prosesorida amalga oshirildi va natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

Boshlang'ich bosqichda, ya'ni tajriba-sinov AVVALIDA olingan qiymatlar (H) barcha OTMlar va umumiy kesimda kritik qiymat ($\chi_{kr}^2 = 7.8$) dan kichik bo'lib, H_0 – nol gipoteza (ya'ni, guruhlar o'rtasida sezilarli farq yo'q) qabul qilinadi. Bu esa tajriba va nazorat guruhlar bilim darajalari jihatidan bir xil holatda ekanligini ko'rsatadi.

1-jadval

Tajriba-sinov ishlarida o'zlashtirish ko'rsatkichlari natijalari bo'yicha Xi-kvadrat mezon hisoblari

OTM	Nazorat guruhi					Tajriba guruhi					χ_{ts}^2	χ_{kr}^2	H
	N_1	5	4	3	2	N_2	5	4	3	2			
Tajriba-sinov AVVALIDA													
SamISI	123	11	28	45	39	123	11	22	53	37	1,43	7,8	H_0
TDIU SF	120	11	20	51	38	120	10	24	47	39	0,59	7,8	H_0
TATU SF	120	10	27	31	52	120	10	23	49	38	6,55	7,8	H_0
Umumiy	363	32	75	127	129	363	31	69	149	114	2,95	7,8	H_0
Tajriba-sinov YAKUNIDA													
SamISI	123	12	27	46	38	123	12	55	44	12	23,13	7,8	H_1
TDIU SF	120	11	23	49	37	120	12	57	30	21	23,48	7,8	H_1
TATU SF	120	11	28	30	51	120	11	46	41	22	17,60	7,8	H_1
Umumiy	363	34	78	125	126	363	35	158	115	55	55,40	7,8	H_1

Tajriba-sinov YAKUNIDA esa barcha OTMlar kesimida hisoblangan X^2 qiymatlari 7.8 dan yuqori bo'lib, H_1 – alternativ gipoteza (guruhlar o'rtasida statistik farq mavjud) qabul qilinadi. Jumladan, SamISIda $\chi_{ts}^2 = 23.13$, TDIU SFda $\chi_{ts}^2 = 23.48$, TATU SFda esa $\chi_{ts}^2 = 17.60$ bo'lib, bu natijalar nazorat va tajriba guruhlar o'rtasidagi sezilarli tafovutni isbotlaydi. Umumiy hisobda esa $\chi_{ts}^2 = 55.40$ bo'lib, bu eng yuqori farq ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ushbu jadval tajriba guruhi bilan ishlashda qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuvlar va interaktiv vositalarning ta'lim samaradorligini oshirganini faqat empirik emas, balki statistik asosda ham isbotlaydi. Shunday qilib, 1-jadval eksperimental metodikaning ishonchligini matematik asosda mustahkamlab beradi.

Tadqiqotda o'qitish jarayonining samaradorlik koeffitsiyenti maqsadida guruhlarda o'zlashtirish bahosining o'rtacha qiymati (3.2) va ularning nisbati hisoblashlar orqali hisoblab chiqildi (2-jadval):

$$X^* = \frac{\sum_{i=1}^k x_i m_i}{N}, \quad (3.2)$$

bunda, x_i – o‘tkazilgan nazorat natijasidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi hisoblanib, u 2,3,4,5 kabi qiymatlar olingan; m_i – o‘zlashtirish jarayonida olingan baholarning takrorlanishlar soni; N – tajriba-sinov ishlarida qatnashayotgan o‘quvchilarning soni;

Tajriba va nazorat guruhleri o‘zlashtirish baholarining o‘rta arifmetik qiymatlari nisbati asosida samaradorlik koeffitsiyenti quyidagi

$$\eta = \frac{X_T^*}{X_H^*} \quad (3.3)$$

formula orqali aniqlandi, bu yerda X_T^* – tajriba guruhidagi, X_H^* – esa nazorat guruhida o‘zlashtirish baholarining o‘rta arifmetik qiymati (2-jadvalga qarang).

2-jadval tajriba-sinov ishlarining samaradorligini miqdoriy jihatdan baholash maqsadida o‘zlashtirish darajalarining koeffitsiyentlarini hisoblash asosida tuzilgan bo‘lib, bunda talabalar javoblarining sifat darajalari (5 – yuqori, 2 – eng quyi) bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlar aniqlangan. Jadval har bir OTM kesimida nazorat va tajriba guruhlarining boshlang‘ich va yakuniy bosqichlardagi o‘rtacha ballari (samaradorlik koeffitsiyentlari) va ularning nisbatlarini (koeffitsiyent o‘sishi) ko‘rsatadi.

Tajriba-sinov boshlanishida nazorat va tajriba guruhleri o‘rtasidagi samaradorlik koeffitsiyentlari deyarli bir xil bo‘lib, farq 1.00 atrofida bo‘lgan: masalan, SamISIda 3.09 (nazorat) ga nisbatan 3.06 (tajriba), TDIU SFda 3.03 ga nisbatan 3.04 koeffitsiyent qayd etilgan. Bu holat ikkala guruhda ham boshlang‘ich shart-sharoitlar teng bo‘lganini ko‘rsatadi.

2-jadval

Tajriba-sinov ishlarida samaradorlik koeffitsiyentlari

OTM	Nazorat guruhi					Tajriba guruhi					\bar{X}_N	\bar{X}_T	$\frac{\bar{X}_T}{\bar{X}_N}$
	N_1	5	4	3	2	N_2	5	4	3	2			
Tajriba-sinov AVVALIDA													
SamISI	123	11	28	45	39	123	11	22	53	37	3,09	3,06	0,989
TDIU SF	120	11	20	51	38	120	10	24	47	39	3,03	3,04	1,003
TATU SF	120	10	27	31	52	120	10	23	49	38	2,96	3,04	1,028
Umumiy	363	32	75	127	129	363	31	69	149	114	3,03	3,05	1,006
Tajriba-sinov YAKUNIDA													
SamISI	123	12	27	46	38	123	12	55	44	12	3,11	3,54	1,141
TDIU SF	120	11	23	49	37	120	12	57	30	21	3,07	3,50	1,141
TATU SF	120	11	28	30	51	120	11	46	41	22	2,99	3,38	1,131
Umumiy	363	34	78	125	126	363	35	158	115	55	3,06	3,48	1,138


Tajriba-sinov yakunida esa tajriba guruhlari koeffitsiyentlari ancha yuqorilagan: SamISIda 3.54, TDIU SFda 3.50 va TATU SFda 3.38 gacha ko‘tarilgan. Nazorat guruhlarining koeffitsiyentlari deyarli o‘zgarmay qolgan. Umumiy hisobda nazorat guruhi 3.06 ballda qolgan bo‘lsa, tajriba guruhi 3.48 ballgacha o‘shish qayd etgan.

Bu jadvalga ko‘ra quyidagi ilmiy-tahliliy fikrlarni keltrish mumkin:

Birinchiidan, jadvalda nafaqat samaradorlik darajalari, balki ular orasidagi nisbat – ya’ni koeffitsiyentlar farqi (Tajriba/Nazorat) ham aniq ko‘rsatilgan. Bu nisbatlar o‘quv jarayoniga kiritilgan metodik yangiliklarning samaradorligini miqdoriy baholash imkonini beradi. Jumladan, tajriba guruhining natijalari nazorat guruhiga nisbatan 13–14 foizgacha yuqorilagan, bu esa statistik jihatdan ham ahamiyatli farq hisoblanadi.

Ikkinchiidan, bu koeffitsiyentlar o‘zgarishi barcha oliy ta’lim muassasalarida barqaror tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat eksperiment metodikasining lokal emas, balki umumiyashtiriladigan pedagogik yondashuv sifatida amal qilishini ko‘rsatadi. TDIU SF va SamISIda har ikkala guruhdagi o‘rtacha baholar avvaliga deyarli teng bo‘lgan bo‘lsa-da, yakunda tajriba guruhi natijalari ancha ustun bo‘lgan.

Uchinchiidan, tajriba guruhi baholari o‘rtacha 3,50 balldan yuqoriga ko‘tarilgan bo‘lib, bu “yuqori” daraja chegarasiga yaqinlashganligini bildiradi. Nazorat guruhlari esa 3.06 atrofida qolgan. Bu esa oddiy o‘qitish shakli bilan zamonaviy, faol metodlar asosida tashkil etilgan ta’lim o‘rtasidagi sifat farqini yaqqol ko‘rsatadi.



3.4-rasm. Tadqiqot natijalarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

Nihoyat, ushbu jadval faqat o‘zlashtirish darajasini emas, balki ta’limdagi sifat, motivatsiya va faol ishtirok dinamikasini ham o‘lchovli ko‘rinishda taqdim etadi. Bu natijalar asosida aniqlangan samaradorlik nisbati (tajriba/nazorat) – 1.138 ga teng bo‘lib, bu tajriba metodikasi samaradorligining 14% ortganini matematik asosda ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichlar tajriba guruhlarida qo‘llangan pedagogik

texnologiyalar va metodik yondashuvlar o'quvchilarning bilim sifati va o'zlashtirish darajasini oshirishda samarali bo'lganini ishonchli tarzda isbotlaydi.

Shu bois, 2-jadval nafaqat tajriba-sinov ishi samaradorligini tasdiqlaydi, balki ta'lim tizimiga metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun asosiy mezonlardan biri bo'la oladi.

XULOSA

Nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o'rgatish texnologiyalarini monitoring qilishning nazariy asoslari yuzasidan o'tkazilgan va qo'llash metodikasini takomillashtirish sohasida olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ldi:

1. Tijorat sohasida ishlatiladigan mavjud leksik birliklarning turli sathlarda kelib chiqishi tarixi va ahamiyati borasida dunyo olimlari va mahalliy olimlarning sohaga tegishli fikr va mulohazalarini keng tahlil qilish barobarida, ushbu leksemalarning O'rta Osiyo mamlakatlarida Yevropadagi uyg'onish davridan ham ilgari mavjud bo'lganligi alohida qayd etildi.

2. Tijorat atamalarining tarkibiy tuzilishi va uning qay darajada sohaviy leksiklar bilan chambarchas bog'liqligi xorijiy tillar orqali tahlil qilindi va har ikki tildagi holatlar bo'yicha misollar yordamida batafsil ma'lumot berildi. Tijorat sohasida ishlatiladigan leksik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari o'z ichiga keng qamrovli tillardan o'zlashgan va o'zlashtirayotgan so'z va iboralar mavjudligi aniqlandi. Ingliz tilining boyish manbaalari va uning taraqqiyot bosqichlari qadimgi tarixga borib taqalishi keltirilgan misollar orqali ko'rsatib o'tildi. Bu holat leksemalarning ichki va tashqi manbaalar asosiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

3. Jahon ta'lim tizimida top yuztaliklarga kiruvchi yetakchi oliy ta'lim maktablari ta'lim tizimi va ularning dasturlarida o'qitilayotgan fanlar tahlili asosida, tijorat terminlarini o'rgatishdagi zamonaviy metodlar va pedtexnologiyalarni talabalarning psixologik qobiliyatini inobatga olgan holda joriy etish, maqsadga muvofiqligi tasdiqlandi. Chet tilda tijorat terminlarining o'zlashtirish kompetensiyasini takomillashtirish yo'llari va afzalliklarini keng yoritgan holda biz tillarni qiyosiy o'rganish metodidan foydalanishni taklif etamiz.

4. Nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalariga tijorat leksemalarini o'rgatish texnologik monitoringini amalga oshirishda, xorijiy til o'qitishni tashkillashtirishda aniqlangan nomutanosibliklar talabalarning fanni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini aniq anglab olishlariga to'sqinlik qilmoqda va oqibatda, monitoring ta'minotining asosiy komponenti (ehtiyoj) yetishmasligiga sabab bo'lib, o'zlashtirish motivatsiyasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, darsdan ko'zlangan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bunda ingliz va o'zbek tillari qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan ko'rib chiqilganida, tijorat terminlarini o'rgatishda quyidagi qiyinchiliklar aniqlandi:

a) kommunikativlikda uchraydigan murakkabliklar: bir tilda mavjud so'zning ikkinchi tilda uning ekvivalenti borligi orqali muloqotga kirish mumkinligi;

b) har ikkala tilda mavjud so'z birikmalarining o'ziga xos ichki qurilishida kuzatiladigan nomutanosib holatlar va ularni aniqlashdagi qiyinchiliklar;

c) sotsio-madaniy holatlarda uchraydigan munosabatlar.

Biz, har ikkala tilda mavjud lug‘at tarkibini chuqur o‘rganish orqali undagi arxaik va neologizm so‘zlardan foydalanish bilan chet tildagi o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish yo‘llarini taklif etdik.

5. Talabalarga ingliz tilidagi tijorat leksikasini o‘rgatishda turli xil baholash kompetensiyalarini takomillashtirish mashqlari tizimdagi psixologik, psixolingvistik, didaktik yondashuvlarni nazarda tutgan holda ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirishda hizmat qilishi asoslandi. Shuningdek, Blum taksonomiyasining bilish darajalari asosida tijorat terminlarini o‘rgatishni takomillashtirib, nokasbiy, shartli-kasbiy va asliy-kasbiy kompetensiyaviy mashqlardan foydalanishni tavsiya etdik. Jumladan, to‘rt bosqichdan iborat mashqlar tizimida: dars mavzusiga fikran yo‘nalishni ta‘minlovchi *tayyorlovchi* mashqlar; talabalarining mavzuni o‘zlashtirishlari uchun tegishli til aspektlari va nutqiy ko‘nikmalar haqida ma‘lumot berish orqali ularning muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlarini so‘ndirishga qaratilgan *informatsion* mashqlar; talabalarining yangi ma‘lumotlar bilan ishlab, tegishli bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga chaqiruvchi o‘quv faoliyati motivatsiyasini faollashtiruvchi *operatsion* mashqlar; o‘z ichiga o‘zlashtirilgan materiallarni mustaqil ravishda amalda qo‘llash orqali ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, talabada muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini qo‘zg‘atuvchi, *takomillashtiruvchi* mashqlardan iborat. Ular talabalarining ingliz tilini o‘zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirishi bilan bir qatorda, berilayotgan materiallarni samarali o‘zlashtirishga olib keladi.

6. Nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalarining tijorat leksemalarini ingliz tilida o‘zlashtirish motivatsiyalariga ta‘sir etuvchi uchta asosiy omil aniqlandi: o‘quv materiallarining talabalarga qiziqarli bo‘lishi; o‘qituvchining darslarni olib borish uslubi; bilim va ko‘nikmalarni baholovchi nazorat turlarini muvaffaqiyatli topshirishi. Talabalarga tijorat leksikasini o‘rgatishda o‘ziga xos noan‘anaviy dars berish, pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat tajribalaridan foydalanish kabi yuqori usullarni joriy etish yuqori samaradorlikka olib kelishi isbotlandi. Chet til xalqaro standartlarida nazarda tutilgan dars turlari: ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlar, seminar, aralash, binar, individual kabi shakllar asosida tijorat terminlarini o‘rgatish talabalarining bilimini oshirishga va ularning monitoringini aniqlashda yuqori natija berdi.

7. Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodologik tavsiyalar orqali tajriba-sinov ishlari SamISI, TATU Samarqand filiali, TDIU Samarqand filialida tashkillashtirilib, fan kesimida tushuntirish va mahorat darslari, eksperimental maqsad va vazifalar haqida ma‘lumot berildi. Natijalarni olishda har bir OTM talabalarini ikki guruhga bo‘lgan holda tajriba 363 ta va nazorat guruhlariga 363 taga ajratib tadqiqot o‘tkazildi. Tijorat terminlarini o‘zlashtirish darajasi yakuni tajriba-sinov natijasida umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 14% darajani tashkil etishi aniqlandi.

8. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining natijadorlik ko‘rsatkichlari seminar-trening, blis so‘rov, BBB usuli, Klaster metodi, toyifalash jadvali oraqli, test, topshiriqlari yordamida tashkillashtirilib talabalarining bilim va ko‘nikmalarini aniqlashda keng ishlatildi. Shuningdek, tadqiqot olib borishda texnik vositalar o‘z

o'rnida ishlatildi. Tadqiqotda ilgari surilgan maqsadlarni amalga oshirish natijasida bakalavr o'quv fan dasturiga "iqtisodiyot terminlarini o'qitish metodikasi" nomli bo'limni kiritish taklif etildi. Mavjud "monitoring result" ishchi dasturidagi ta'lim mazmuni, maqsad va vazifalari, ajratilgan soatlar taqsimotining monitoringini o'rganish esa kompetensiyalarni xalqaro standart darajasiga olib chiqish imkonini berdi.

9. Tijorat terminlarini bugungi kunda kompyuterlar, internet tizimi, uyali telefon va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan shuningdek, proektorli o'qitish texnologiyalarini keng qo'llangan holda o'rgatish yuksak samara beradi. O'qitishni ushbu shaklda tashkil etish yoshlarda yangicha qiziqish, motiv va maqsadlar yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Shu sababli kompyuterda o'qitish vaqtni tejalishiga, ma'lumotlarni o'rganuvchilarga tez va aniq yetkazishga, natijada bir vaqtning o'zida samarali monitoring tahlilini ham olib borish imkonini berdi. Bu noan'naviy darslardan ancha farqlandi.

10. Tadqiqotda nofilologik oliy o'quv yurti birinchi va ikkinchi kurs talabalarini tijorat leksikasiga o'rgatish bo'yicha dasturiy ta'minotda lug'at, uslubiy qo'llanma, test topshiriqlarini joriy qilish orqali maxsus (terminologik) leksikani o'rgatish amaliyotida yuqori natijaga erishildi. Bu nafaqat oliy kasb ta'limi bosqichida, balki ta'limning nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalari va barcha qiziquvchilarga, mutaxassislik guruhlarida va magistraturada ta'lim olish bosqichlarida ham samarali qo'llanilishi mumkin.

11. Ushbu tadqiqotning istiqboli shundan iboratki, tavsiflangan tijorat leksikasini o'qitish metodikasi boshqa mutaxassislik talabalarini o'qitishda qo'llanilishi mumkin, chunki tadqiqotning maqsadi o'quv jarayonlarini takomillashtirish hamda kasbga yo'naltirilgan leksikani egallash va ingliz tilini o'qitishning eng samarali usullarini aniqlashga yo'naltirgan. Ingliz tili bo'yicha bilimlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatida keng qo'llanilishi mumkin.

METODIK TAKLIF VA TAVSIYALAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida nofilologik oliy o'quv yurtlari talabalariga tijorat leksikasini o'rgatish texnologiyalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Nofilologik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Proektorli o'qitish texnologiyalari asosida tijorat leksikasini ingliz tilida" o'qitish uchun maxsus o'quv-modul kurslarini joriy etish va bu boradagi amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish lozim.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida talabalarni onlayn tayyorlash tizimini shakllantirish va ular orqali ingliz tilida talabalarni uzluksiz ravishda zamonaviy smart texnologiyalarga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

3. Tajriba-sinov ishlarida o'zini oqlagan didaktik model, pedagogik shart-sharoitlar, o'quv materiallari va diagnostika vositalaridan amaliyotda keng foydalanish taklif etiladi.

4. Ilmiy-uslubiy markazlar va ta'lim muassasalari hamkorligida "Proektorli o'qitish texnologiyalari" bo'yicha seminar-treninglar, metodik qo'llanmalar, onlayn kurslar va tajriba almashish platformalarini yo'lga qo'yish tavsiya qilinadi.

5. Tijorat leksikasini o'rgatish texnologiyalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirish uchun ingliz tilida talabalarning tayyorgarlik darajasini baholashda muvofiq indikatorlar va mezonlar asosida shakllangan baholash yo'riqnomasini joriy etish zarur.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01
ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ТОШПУЛАТОВ ДИЛШОДЖОН АБДУРАФИКОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ МОНИТОРИНГА
ТЕХНОЛОГИЙ ПО ОБУЧЕНИЮ КОММЕРЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ
СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ
(На примере английского языка)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по педагогическим наукам (PhD)**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под № V2021.1.PhD/Ped1296.

Диссертация была выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdhti.uz) и на Информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Тухтасинов Илхомжон Мадаминович
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Жуманазаров Умид Умирзакович
доктор педагогических наук (DSc), профессор
Пазилов Абдушохит Абдуваеитович
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
доцент

Ведущая организация: Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится “14” ноября 2025 г. в 12⁰⁰ часов на заседании Разового научного совета при Научном совете PhD.03.30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, Ул. Гагарина, 43. Телефон (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована под № 62392). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, Ул. Гагарина, 43. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации распространен 29 “октябрь” 2025 г.
(Протокол реестра рассылки № 46 от “29” октябрь 2025 г).



Н.З.Насруллаева
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У.Кулдошов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А.Киселёв
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире в последние годы резко возросла роль английского языка в международных экономических, финансовых и коммерческих отношениях. Особенно в теоретических исследованиях, касающихся преподавания коммерческой лексики, интеграция языка и профессиональной сферы занимает центральное место, основываясь на концептуальных подходах, таких как ESP (English for specific purposes), ebp (English for Business purposes) и CLIL (Content and Language Integrated Learning). На основе смежных дисциплин – лингвистики, прагмалингвистики, образовательных технологий и экономических знаний – разрабатываются теоретические модели и подходы к применению английского языка в профессиональных сферах. В частности, проводятся многочисленные теоретические исследования по гармонизации обучения коммерческой терминологии, транснациональных торговых речевых единиц, речевых актов и стратегий с современными когнитивно-психологическими методами

В мире, в частности, в США, Великобритании, Канаде, Австралии и некоторых передовых странах Азии, на основе электронных учебных модулей, профессиональных языковых порталов и сетевых платформ для обучения коммерческой лексике внедряются системы мониторинга. Например, с помощью электронных ресурсов, таких как " Business English Pod", " Market Leader", " BBC Learning English – Business", " Cambridge Business Advantage", были разработаны методы не только обучения языку, но и контроля и оценки навыков использования языка в реальных коммерческих ситуациях. В то же время внедряются в практику адаптивные технологии, цифровые инструменты оценки, обучающие программы на основе искусственного интеллекта. Эти ресурсы позволяют реализовать индивидуальный подход, дифференцированное обучение, динамическую оценку языковой компетенции, а также рефлексивный анализ.

“В условиях Узбекистана в последние годы на уровне государственной политики поддерживается вопрос профессионального обучения иностранному языку, в частности английскому, в нефилологических высших образовательных учреждениях”. Однако пока еще недостаточно сформированы практический опыт и методические средства систематического контроля процесса обучения коммерческой лексике, оценки результативности и научно обоснованного анализа эффективности обучения. Существующие учебники и учебно-методические пособия в основном ориентированы на формирование общей языковой компетенции, а отсутствие системы мониторинга за углубленным овладением профессиональной лексикой, особенно языком коммерческой сферы, отрицательно сказывается на непрерывности и качестве учебного процесса, поэтому в данном направлении необходимо создать систему мониторинга с интегрированием современных информационно-коммуникационных технологий, адаптировать ее к национальной системе образования и совершенствовать на основе передового

зарубежного опыта являются одной из актуальных научно-практических задач.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных в Указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан: от 28 января 2022 года № УП -60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 19 мая 2021 года № ПП -5117 “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан”, “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах” от 5 июня 2018 года № ПП -3775, от 8 октября 2019 года № УП -5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, от 20 апреля 2017 года № ПП -2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, от 27 июня 2017 года № ПП -3151 “О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и сфер экономики в повышении качества подготовки специалистов с высшим образованием”, от 10 декабря 2012 года № ПП -1875 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков ” и другими нормативно- правовыми актами, касающимися данной деятельности.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Настоящая диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развитию науки и технологии Республики” **Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информированного общества и демократического государства”.**

Степень изученности проблемы. Вопросы методики преподавания иностранных языков в нашей стране широко освещены в научных исследованиях таких ученых, как Ж.Ж.Жалолов, М.Джусупов, Д.У.Хашимова, Т.К.Саттаров, Л.Т.Ахмедова, И.М.Тухтасинов, М.А.Назаров, Б.Г.Кулматов, М.Х.Гулямова, Г.Т.Махкамова, Ш.С.Ашуров, У.У. Жуманазаров.¹⁷

¹⁷ Тухтасинов И.М. Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке преподавания переводчиков: дис.док.пед.наук (DSc).-Т.,2018.-203 с.; J.J.Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik).-Т., 2012.-432с. Джусупов М. Социоллингвистика, лингводидактика, методика. Электрон манба: https://pushkininstitute.ru/system/file_tree_nodes/attachments/000/000/640/original/SNG_Jusupov2_Uzbekistan.pdf?1456479950 murojat sanasi 12.06.2020; Хашимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межязыковой взаимодействий, дис.док.пед.наук (DSc).-Т., 2007.-209 с; Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): автореф.дис...док.пед.наук. –Ташкент, 2000.-32с; Ахмедова Л.Т., Кон О.В. Методика преподавания русского языка. Фан ва технология. Т., 2007.-240 с. Nazarov M.A. Ingliz tilidagi matnlarni o'qitishda talabalarni leksik polisemiyaga o'rgatishni takomillashtirish. avftorep...кан.пед.наук.-Toshkent,2018; Qulmatov B.G. Ingliz tilini innovasion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlardan foidalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. avtoref. ped.fan.bo'yicha falsafa doktori.-Toshkent, 2018; Gulyamova M.H. Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrative yondashuv: avtoref. ped.fan.bo'yicha falsafa doktori.-Toshkent,2019.-45b.; J.J.Jalolov Mahkamova G.T., Ashurov Sh.S “English language teaching methodology” 2015.; Jumanazarov U.U. Ta'limni

В процессе образования по подготовке двуязычных словарей терминов, относящихся к сфере коммерции, по изучению их различных духовных свойств проводили научные исследования такие ученые, как Ч.С.Абдуллаева, Х.Дадабаева, Х.И.Исламжанова, С.Саидова, Ф.Д.Халилов, Д.М.Тешабоева.¹⁸ Также, Т.Бедладзе, Ш.Ниязатов, У.Уватов и М.Пардаев создали двуязычные словари терминов, относящихся к сфере коммерции.

Из ученых и исследователей Независимых стран содружества И.Д.Суханова, Т.А.Широкова, В.В.Касьянов, М.Р.Насирова, Л.Н.Лубожева, В.М.Сергевнина, Г.Ф.Калганова, В.В.Иванов¹⁹ также проводили научные исследования по данной проблеме.

Вопросы и задачи анализа лексико-семантических свойств экономических, политических терминов в мировой лингвистике, использование в различных сферах и практические значения были изучены такими учеными, как И.Г.Анохина, О.С.Ахманова, А.И.Пакровский, В.Н.Ярцева, Б.А.Райзберг, Л.Ш.Лозовский, Е.Б. Стародубцев²⁰.

